

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy

AXBOROTNOMA

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tizimli asosda tashkil etish, quyi tuzilmalarda olib borilayotgan ishlarni muntazam o‘rganib borish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish, murojaatlarga sabab bo‘layotgan omillarni tahlil etish va ularni bartaraf etish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga aholidan ko‘plab murojaatlar tushishining oldini olish maqsadida aksiyadorlik jamiyatning barcha magistral gaz quvurlari boshqarmalarida faoliyat ko‘rsatayotgan “fuqarolar qabulxonalari”da aholi uchun shart-sharoitlar tashkil etilgan, jumladan kirish yo‘llari, asosiy kirish joyi, panduslar, fuqarolarni qabul qilish xonalariga ega bo‘lishi ta‘minlangan.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida mutaxassislar tomonidan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy tuzilmalariga chiqib murojaatlarda tez-tez ko‘tariladigan muammoli masalalar bo‘yicha tahlillar o‘tkazish, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va qoidabuzarliklarning sabablarini bartaraf etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish choralari ko‘rish maqsadida o‘rganishlar o‘tkazildi, ularga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatildi.

Joylarda o‘tkazilgan o‘rganishlarda murojaatlar bilan bevosita ishlaydigan mas‘ul xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini yetkazish choralari ko‘rildi.

Hisobot davrida o‘rganish natijalari bo‘yicha tasdiqlangan dasturlar asosida “O‘ztransgaz”AJ mas‘ul xodimlari tomonidan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoida va talablarning mazmun va mohiyatini to‘liq tushunib olish, amaliyotda keng va samarali qo‘llash mavzusida o‘tkazilgan o‘rganishlar soni 12 marotaba hamda seminar mashg‘ulotlari soni 2 bor o‘tkazilgan.

“O‘ztransgaz”AJ boshqaruv raisi hamda uning o‘rinbosari boshchiligida respublikaning barcha tuman va shaharlarida o‘tkaziladigan sayyor qabullari tasdiqlangan grafiklari asosida tashkil etildi.

Hisobot davrida ishchi guruhlar tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida jami 11 ta sayyor qabul o‘tkazildi. Jumladan, Andijon viloyatida 1 bor, Buxoro 2 bor, Jizzax 1 bor, Qashqadaryo 1 bor, Samarqand viloyatida 2 bor, Toshkent 1 bor, Farg‘ona viloyatida 1 bor, Xorazm viloyatida 2 marotaba.

Ommaviy va sayyor qabullar davomida murojaat qilayotgan fuqarolar muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilib, qabullarning natijadorligiga erishish, murojaatlarni xolis va tezkor ko'rib chiqishga qaratilgan aniq choralar ko'rildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida:

O'tkazilgan ushbu sayyor qabullarda "O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxona va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 91 ta og'zaki murojaatlar tushgan bo'lib, ko'tarilgan muammoli masalalar joyida mutaxassislar tomonidan hal etildi.

"O'ztransgaz" AJ boshqaruv raisi, o'rinbosarlari, markaziy apparati mutaxassislar va uning quyi korxona va tashkilotlari tomonidan bevosita aksiyadorlik jamiyatida shaxsiy qabullarda 131 nafar shaxslar qabul qilingan

"O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxona va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan 193 tasi bevosita yozma, 227 ta shaxsiy va sayyor og'zaki qabullarda, 82 ta elektron pochta, 24 ta og'zaki telefon, 128 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan.


Murojaatlarning ko'rib chiqilishi to'liq nazoratga olinib, 602 tasi qanoatlantirilgan, huquqiy ma'lumot berish orqali hal qilingan, 1 tasi tushuntirish berilgan, 5 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 21 tasi tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilgan va 25 tasi o'rganish jarayonida.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchilik va qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va mas'ul xodimlarga nisbatan javobgarlik choralari ko'rilishi ta'minlanmoqda.

"O'ztransgaz" AJ tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida murojaatlar ko'rib chiqish natijalari bo'yicha OAVda 24 marta chiqish amalga oshirilgan. Jumladan, aksiyadorlik jamiyati veb-saytida 24 bor chiqishlar tashkil etilgan.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida "O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxona va tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslar bilan bevosita ishlash, ularning muammolarini aniqlash va hal qilishni nazarda tutuvchi tizimda faoliyat ko'rsatish choralari ko'rildi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i



S.Sidiqjanova